

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar
Adliya bo'limi, Davlat xizmatlari markazida
2024-yil 06-Dekabrdagi

125-son reestr
raqami bilan

«QAYTA RO'YXATGA OLINGAN»



“Farg'onaazot” aksiyadorlik jamiyati
(100 foiz ovoz beruvchi aksiya egasi)

2024-yil 25-oktabrdagi
Aksiyadorining qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

“Farg'onaazot” aksiyadorlik jamiyati

USTAVI

(yangi tahrir)

1. Umumiy qoidalar.....	3
2. Jamiyatning huquqiy holati, javobgarligi	3-4
3. Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadi	4-6
4. Jamiyat ustav kapitalining miqdori	7
5. Jamiyat ustav kapitalini ko‘paytirish/kamaytirish	7-8
6. Jamiyatning aksiyalari, ularning nominal qiymati va ularni joylashtirish tartibi	8
7. Jamiyat aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari	8-9
8. Jamiyat foydasini, dividendlarni taqsimlash va zararni qoplash tartibi	9-10
9. Jamiyatning zaxira fondi	11
10. Jamiyat boshqaruvining tuzilmasi	11
11. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi	11-13
12. Jamiyat Kuzatuv kengashi	13-15
13. Jamiyatning Ijroiya organi	15-16
14. Jamiyat faoliyatini nazorat qilish	16-18
15. Jamiyat tomonidan tashqi qarzlarni jalg qilishni tartibga solish	18
16. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish	18
17. Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish	18-19
18. Yakuniy qoidalar	19

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (matn davomida – Qonun) va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Bundan buyon matnda "jamiyat" deb ataluvchi "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasining 2004-yil 31-dekabrdagi 192k-PO-sonli "Azot ishlab chiqarish birlashmasi - davlat korxonasini davlat tasarrufidan chiqarish va uni ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

1.3. Jamiyat dastavval, Farg'ona viloyati Farg'ona shahri hokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiysi tomonidan 2005-yil 19-yanvarda 98-raqam bilan ro'yxatga olingan.

1.4. Jamiyat Farg'ona viloyati Farg'ona shahri hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiysi tomonidan 2015-yil 24-iyunda 125-sonli reyestr tartib raqami bilan qayta ro'yxatga olingan.

1.5. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi (06.05.2014 O'RQ-370) va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi (03.06.2016 O'RQ – 387) Qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.6. Jamiyatning to'liq firma nomi:

1.6.1. O'zbek tilida:

- lotin yozuvida **"Farg'onaazot" Aksiyadorlik jamiyati**
- kiril yozuvida **"Farg'onaazot" Акциядорлик жамияти**

1.6.2. Rus tilida:

Акционерное общество "Farg'onaazot"

1.6.3. Ingliz tilida:

- joint stock company **"Farg'onaazot"**

1.7. Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

1.7.1. O'zbek tilida:

- lotin yozuvida **"Farg'onaazot" AJ**
- kiril yozuvida **"Farg'onaazot" АЖ**

1.7.2. Rus tilida:

АО "Farg'onaazot"

1.7.3. Ingliz tilida:

JSC "Farg'onaazot"

1.8. Jamiyatning manzili:

- joylashgan yeri: O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Farg'ona shahri Sanoat ko'chasi, 222-uy

- pochta manzili: 115108, O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Farg'ona shahri Sanoat ko'chasi, 222-uy

1.9. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@azot.uz

1.10. Jamiyatning korporativ veb-sayti: www.azot.uz.

2. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI, JAVOBGARLIGI

2.1. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulk shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.2. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

2.3. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.4. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

2.5. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

2.6. Jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi.

2.7. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligin o‘z zimmasiga oladi.

2.8. Aksiyalarning haqini to‘liq to‘lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladi.

2.9. Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

2.10. Agar jamiyatning bankrotligi jamiyat uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo‘laman taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ushbu ustavda bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo‘ladi.

2.11. Jamiyat uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyador jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo‘lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

2.12. Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

3. JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MAQSADI

3.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo‘lib, uning asosiy maqsadi molivaviy-xo‘jalik faoliyatidan foya olishdir. Belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun faoliyatning predmeti (asosiy yo‘nalishlari) quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- mineral o‘g‘itlar, defoliantlar, atsetat hamda poliamid tolalar, organik va noorganik kimyo mahsulotlari va ularni ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan yarim va tayyor mahsulotlar, xalq iste’moli mollari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- o‘z tovar va xizmatlariga narxlarni, xarid qilish sotish shartlarini mustaqil belgilash (monopol mahsulot reyestriga kiritilgan va narxlarni tartibga solish organi tomonidan deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan mahsulot bundan mustasno);
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida mustaqil ravishda yoki vositachilar orqali ulgurji va chakana savdoni amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida tovar va mol-mulkning barcha (moddiy va nomoddiy, ko‘chmas va ko‘chadigan) turlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, qurish qo‘lga kiritish, ular yuzasidan bitimlar tuzish, ijaraga olish yoki boshqa tarzda qo‘lga kiritish va/yoki yuqorida ko‘rsatilgan mol-mulkni ijaraga berish, garovga qo‘yish, undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish yoki istalgan boshqa tarzda uni tasarruf qilish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida istalgan shaxslar bilan mustaqil tarzda bitim va kelishuvlar tuzish, tijorat va xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish hamda zimmasiga majburiyatlar olish;
- mazkur Ustavning 3.1-bandida va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan jamiyatning tijorat faoliyati va uning asosiy vazifalari uchun zarur va mos bo'lgan import va eksport amaliyotini mustaqil tarzda yoki vositachilar orqali amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida shirkatlar, qo'shma va sh.k. korxonalarini tuzish bo'yicha bitimlarni tuzish va bekor qilish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini, filial va vakolatxonalarini tuzish;
- tovar va valyuta birjalarining ishida ishtirok etish;
- mablag'larni qarzga olish yoki mablag' toplashni tashkil etish, jamiyat majburiyatlarini bo'yicha yoki qarzdorning mol-mulkiga band solish yo'li bilan har qanday shaxsga garov taqdim etish;
- jamiyat mablag'larini O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida investitsiya shaklida kiritish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq investitsiyalar, aksiyalar, kreditlar va boshqa qimmatli qog'ozlari qo'lga kiritish va/yoki boshqa shaxslarga o'tkazish, almashtirish va ulardan boshqa tarzda foydalanish;
- jamiyat fondlarini jamiyatning va uning istalgan sho'ba kompaniyasining xo'jalik faoliyatini kengaytirish uchun ishlatisch;
- istalgan shaxsga kafolat bilan yoki kafolatsiz, muvofiq bo'lgan istalgan shartlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pul mablag'larini qarzga yoki avans (bo'nak) sifatida berish yoki boshqa tarzda qarz berish;
- kompaniyaning har qanday mulkini, jamiyatning yoki istalgan boshqa shaxsning kontraktlari yoki majburiyatlarini bajarilishini majburiyatlar bilan yoxud qarzdorning mol-mulkiga band solish huquqi bilan kafolatlash;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyatning istalgan aksiyalari va/yoki boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish yoki ularni istalgan shaxsga sotish hamda shunday chiqarish yoki sotish yuzasidan har qanday bitimga kirish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq har qanday savdo markalari, nomlari, xizmat ko'rsatish belgilari, dizaynlar, patentlar, ixtiolar, nou-xaular va intelektual mulkning boshqa shakllarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish va ro'yxatdan o'tkazish, ularni sotib olish yoki o'zga usulda qo'lga kiritish, sotish, litsenziyalash, o'zga shaxslarga berish yoki ular bilan savdo qilish;
- har qanday shaxsni yollash, jamiyatning har qanday mansabdor shaxsiga yoki xodimiga yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga yoxud ularning qarindoshlariga yoki boqimandalari uchun ish xaqi, pensiya va boshqa nafaqalarni to'lash, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pensiyalar, nafaqalar, mukofotlar va rag'batlantirishlarni to'lash buyicha rejalarini ishlab chiqish va joriy qilish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yo'qotishlar tavakkalchiliklar va mas'uliyatning boshqa turlaridan sug'urtani amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida ko'rgazmalar va kimoshdi savdolarini tashkil etish, ularda ishtirok etish va shu kabi faoliyat bilan shug'ullanish;
- • xayriya va homiylik badallarini ajratish hamda sog'liqni saqlash, madaniyat va fan uchun mablag'lар ajratish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mustaqil tartibda yoki boshqa shaxslar bilan hamkorlikda yoki ular orqali yoxud agent, ikkilamchi pudratchi, sho'ba korxonasi yoki vakolatxona vositachiligidagi yoxud o'zga usulda rahbar, agent, pudratchi yoki boshqa sifatda faoliyat yuritish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyat qaramog'ida tibbiy muassasalarni ta'minlash yo'li bilan tibbiy yordam ko'rsatish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq reklama kompaniyalarini tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ommaviy axborot vositalarini chop etishni tashkil etish;

- savdo va savdo-vositachilik, jumladan eksportga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ham mahalliy, ham xorijiy tayanch valyutada tovar(xizmat)larni xarid qilish/sotish.

3.2. Jamiyat asosiy maqsadiga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- mineral o'g'itlar, defoliantlar, atsetat hamda poliamid tolalar, organik va noorganik kimyo mahsulotlari va ularni ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lган yarim va tayyor mahsulotlar, xalq iste'moli mollari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaradi;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun;

- chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik va parrandachilik, shuningdek, nasldor chorva hamda parrandalarni ko'paytirish va ularni sotish, o'z ehtiyoji uchun foydalanish;

- temir yo'l transporti orqali yuklarni tashish, mavjud bo'lган avtomobil, transport vositalari bilan yuk, yo'lovchilarni tashish va xizmat ko'rsatish;

- jamiyat ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta foydalanish maqsadida turli shakldagi xalqaro hamkorliklarda qatnashadi va jamiyat eksport bazasini rivojlantiradi;

- savdo-xarid va savdo-vositachilik faoliyatini yuritadi, vositachilik xizmatlarini ko'rsatadi;

- mahalliy telefon aloqasi, ko'chma radiotelefon aloqasi tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish va foydalanish;

- ko'p tirajli gazetalar chop etish;

- jamiyat xodimlari va ularning oila a'zolarini sog'lomlashdirish uchun dam olish maskanlarini tashkil etish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga pullik xizmat ko'rsatish;

- dori- darmonlar xarid qilish;

- xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va sotish;

- innovatsion mahsulotlarni kashf etish va sotish;

- axborot-reklama nashriyot ishlarini bajarish;

- firma do'konlarini, filiallarini va bo'limlarini tashkil etish;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari, avtomobil va yuk mashinalari ehtiyyot qismlari bilan savdo vositachilik qilish;

- xo'jalik mollari sotish va vositachilik qilish;

- do'konlar, umumiy rivojlanish punktlarini ochish;

- har qanday xo'jalik faoliyatida va ishlab chiqarishda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq vositachilik xizmatlarini ko'rsatish;

- ijara faoliyati bilan shug'ullanish;

- moliyaviy faoliyat (foizlar ko'rinishida dividend, chet el valyutasining kurs farqlaridan daromad olish) bilan shug'ullanish;

- yig'ilish, simpozium, madaniy-ommaviy va boshqa shu kabi tadbirlarni tashkil etish va ularga texnik xizmat ko'rsatish;

- siqilgan tabiiy gazni sotish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-soni Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi 616-soni qaroriga asosan korxonada "Malakalarni baholash markazi" faoliyati quyidagilardan iborat:

- talabgorlar malakasining kasb standartlariga ko'ra belgilangan malaka talablariga, shuningdek xodimga malaka talablari qo'yilgan boshqa normativ hujjatlarga mosligini xolis baholashni tashkil etish va o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi taqilanganmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqlidir.

Jamiyat qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatalgan tartibda amalga oshirishi mumkin.

4. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

4.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

4.2. Jamiyat ustav kapitali 83 472 914 910 (sakson uch milliard to‘rt yuz yetmish ikki million to‘qqiz yuz o‘n to‘rt ming to‘qqiz yuz o‘n) so‘mni tashkil qiladi. U har birining nominal qiymati 2 530 so‘m bo‘lgan 32 670 483 dona oddiy va 322 764 dona imtiyozli aksiyalarga bo‘lingan.

5. JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KO‘PAYTIRISH/KAMAYTIRISH

a) Jamiatning Ustav fondini ko‘paytirish

5.1. Jamiyatning ustav kapitali qo‘srimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

5.2. Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalarga qo‘srimcha ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan e‘lon qilingan aksiyalarining soni - nominal qiymati 2 530 so‘m bo‘lgan 163 352 415 dona oddiy aksiya va 1 613 820 dona imtiyozli aksiyadan iborat.

5.3. Ustav kapitalini qo‘srimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘srimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish narxi, aksiyalar uchun to‘lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to‘lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

5.4. Qo‘srimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtirilishi mumkin.

5.5. Jamiatning ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi va jamiat ustaviga tegishli o‘zgartirish kiritish haqidagi qarorlar jamiatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

5.6. Jamiat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayrboshlanadigan, haqi pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega.

5.7. Imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslarning ro‘yxati qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadagi jamiat aksiyadorlari reyestrining ma‘lumotlari asosida tuziladi.

5.8. Qo‘srimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo‘lmagan qiymatda joylashtiriladi.

5.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon‘yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jamiatning ustav kapitali ko‘paytirilayotganda jamiatning qo‘srimcha aksiyalariga uning o‘z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo‘srimcha aksiyalar bilan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to‘langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish jamiat aksiyalarining nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi.

5.10. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to‘g‘risidagi qaror jamiat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan jamiatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo‘lgan aksiyalarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo‘lgan taqdirda, aksiyadorlarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

b) Jamiatning Ustav fondini kamaytirish

5.11. Jamiatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiat tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

5.12. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.13. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko‘rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

6. JAMIYATNING AKSIYALARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI VA ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI

6.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy va imtiyozli bo‘lib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi.

6.2. Aksiya bo‘linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo‘lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e’tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o‘zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi.

6.3. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksianying egasi — aksiyador deb e’tirof etiladi.

6.4. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi.

6.5. Imtiyozli aksiyalar egalari jamiyat tugatilgan taqdirda uning mulklari taqsimlanayotgan paytda oddiy aksiya egalari o‘rtasida mulk taqsimoti amalga oshirilgunga qadar o‘z aksiyalarining nominal qiymatini oladilar.

6.6. Jamiyat o‘zi joylashtirgan imtiyozli aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

6.7. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 2 530 (ikki ming besh yuz o‘ttiz) so‘m.

6.8. Jamiyat aksiyalarining joylashtirilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;
- o‘ziga taalluqli depo hisobvarag‘idan ko‘chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol – mulkning bir qismini olish:
 - aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
 - Jamiyatning moliya – xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
 - olgan dividendini erkin tasarruf etish;
 - qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek, sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;
 - o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
 - o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notiyorat tashkilotlariga birlashish;
 - qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish;
 - o‘zga aksiyadorlarning roziligesiz o‘ziga tegishli aksiyalarni uchinchi shaxslarga begonalashtirish bilan bog‘liq bitimlarni amalga oshirish;
 - Jamiyat aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o‘z vakiliga (vakillariga) berish.

7.2. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladilar.

7.3. Jamiyatning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo‘lmish aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi.

7.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida mazkur yig‘ilish vakolatiga kiramagan barcha masalalar bo‘yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek, dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqini beradi.

7.5. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar, agar mazkur Ustavda va qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko‘paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko‘paytirish masalalari, shuningdek, imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to‘lash navbatni bo‘yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolat doirasiga kiramagan masalalar bo‘yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to‘liq to‘lamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan keyingi yig‘ilishdan boshlab ega bo‘ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo‘yicha dividendlar birinchi marta to‘liq miqdorda to‘langan paytdan e‘tiboran bekor qilinadi.

7.6. Jamiyatning imtiyozli aksiyalarini oddiy aksiyalarga ayirboshlash mumkin emas.

7.7. Imtiyozli aksiyalar o‘z egalariga dividendlarni olishda va Jamiyat tugatilayotganda uning mulki taqsimlanishida birinchi navbatda ishtirok etish imtiyozli huquqni beradi.

Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanadigan qiymat (tugatilish qiymati) imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 100% ni tashkil kiladi.

Taqsimlanayotgan mulkning miqdori Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan oshgan hollarda, imtiyozli aksiyalar egalari oddiy aksiyalar egalari olayotgan mulkning qiymatigacha qo‘srimcha to‘lov oladilar.

7.8. Aksiyalarga bo‘lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag‘iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e‘tiboran o‘tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi.

7.9. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog‘ozga bo‘lgan huquqlar o‘tgan paytdan e‘tiboran o‘tadi.

7.10. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatları:

- mazkur Ustavda ko‘rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to‘lash;
- mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Jamiyat boshqaruvi organlarining qarorlariga bo‘ysunish;
- Jamiyatning maxfiy tusda bo‘lgan axborotlarini oshkor qilmaslik;
- o‘ziga oid ma‘lumotlardagi o‘zgarishlar haqida o‘z vaqtida o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi investitsiya vositachisini xabardor qilish.

7.11. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘ladilar.

8. JAMIYAT FOYDASINI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

8.1. Amaldagi qonunchilikka asosan byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng, Jamiat fondlariga ajratmalar bajariladi. Taqsimlanmagan foyda Jamiat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda ishlataladi.

8.2. Jamiat aksiyadori (aksiyadoring vakili) qarori bilan Jamiatning sof foydasi va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan ajratmalar o'tkazish yuli bilan, Dividend to'lash fondi tuzilishi mumkin. Jamiatning Dividend to'lash fondi dividendlarni to'lash uchun mablag'larni zahiralash va keyinchalik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq aksiyadorlarga dividendlarni to'lab berish uchun mo'ljallanadi

8.3. Dividend Jamiat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar Jamiat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

8.4. Jamiat aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

8.5. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Jamiatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha hisoblangan dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

8.6. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Imtiyozli aksiya o'z egasiga har yili bir dona aksiya nominal qiymatining 25 foiz miqdorida miqdorida birinchi navbatda dividend olish huquqini beradi.

8.7. Jamiat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

8.8. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

8.9. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmisht kundan kech bo'lmasligi lozim.

8.10. Jamiatning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi mablag'lari hisobiga qoplanadi.

8.11. Jamiat quyidagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli emas:

- Jamiat ustav fondining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;
- agar Jamiat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.

Ushbu bandda ko'rsatilgan holatlар tugatilgach, Jamiat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra hisoblangan dividendlar aksiyadorlarga to'lashi shart.

8.12. Jamiat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

8.13. Dividendlarni to'lash tartibi va me'yordi ushbu Ustav hamda Jamiat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

8.14. Jamiatning xomiylik va xayriya yordamlari uchun ajratiladigan yillik harajatlari miqdori oldingi (bazis) yilda olingan sof foydaning 10 foizidan oshmasligi shart. Xomiylik va xayriya yordamlari Jamiat tomonidan oldingi (bazis) hisobot yilidagi sof foya qismida biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilgan holatlarda amalga oshiriladi. Jamiatga berilgan xomiylik va boshqa xayriya yordamlari to'g'risida ma'lumot ommaviy axborot vositalarida va o'zining rasmiy veb saytida berilishi shart va ular bo'yicha alohida hisobot yuritiladi.

9. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

9.1. Jamiyat sof foyda xisobidan zaxira fondini hamda jamiyat faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

9.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag‘lar mayjud bo‘limgan taqdirda, jamiyatning zararlari o‘rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

9.3. Jamiyat ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘limgan miqdorda zaxira fondi tuziladi. Zaxira fondiga belgilangan miqdorga yetgunga qadar har yili sof foydadan 5 foiz ajratma o‘tkazadi.

9.4. Zaxira Fondi to‘laligicha yoki qisman sarflanib bo‘lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

10. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI

10.1. Jamiyat boshqaruv organlari:

- Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Jamiyat boshqaruvi va uning raisi).

11. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI

11.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

11.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig‘ilishini o‘tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi (yillik) umumiy yig‘ilishi har yili odatda 01-maydan – 30-iyungacha o‘tkaziladi.

11.3. Jamiyatning bir foizidan kam bo‘limgan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibiga, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a’zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig‘ilish o‘tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko‘rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

11.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida quyidagi masalalar ko‘riladi:

- jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- jamiyat taftish komissiyasining a’zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash;
- jamiyatning ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish;
- jamiyatning yillik hisoboti va biznes rejasi ijrosi bo‘yicha hisobot;
- Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari;
- foyda va zararlarni taqsimlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish.

Yig‘ilishda boshqa masalalar ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

11.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar

bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

11.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini kuzatuv kengashi raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, kuzatuv kengashi a'zolaridan biri olib boradi.

11.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

▪ Jamiyat Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyat yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

▪ Jamiyatni qayta tashkil etish;

▪ Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

▪ kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

▪ e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

▪ ustav kapitalini kamaytirish;

▪ Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini sotib olish;

▪ Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyatning ijroiya organi rahbarini saylash (tayinlash);

▪ taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek, "Taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash va bekor qilish;

▪ Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek, jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

▪ Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

▪ Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchining) xulosalarini eshitish;

▪ majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomaga tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

▪ aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

▪ aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

▪ O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

▪ O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

▪ korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

▪ Jamiyatning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

▪ har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes jarayonlar va loyihalarning jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

▪ Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni belgilash;

▪ homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini kuzatuv kengashiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;

▪ elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

- sanoq komissiyasiga amaliy yordam ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalg etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);
- Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini saqlash harajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);
- aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi davomiyligini belgilash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

11.8. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnomaga asosida ish yuritadi.

11.9. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.

11.10. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birlgilidagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzish mumkin.

11.11. Jamiyatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

11.12. Jamiyat Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

12. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

12.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

12.2. Jamiyatning kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining miqdor tarkibi 9 (to'qqiz) kishidan iborat, undan 1 (bir) nafari mustaqil a'zo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida aks ettirilgan mustaqil a'zo mezonlariga muvofiq bo'lgan kuzatuv kengashining kamida bir nafar (ammo ustavda ko'nda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) a'zosi – yirik aksiyadorlar tomonidan kelishilgan holda tavsiya etiladi va saylanadi.

Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan mustaqil a'zolar mezonlariga rioya qilishi shart.

12.3. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishlarini chaqirish, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiyatning ijroiya organi a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
 - Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;
 - ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
 - jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
 - auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
 - taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
 - dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
 - zaxira fondidan va boshqa fondlardan foydalanish;
 - filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
 - sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarni tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklanmagan jamiyati shakllarida tuziladi);
 - qonunda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardi ishtiropi bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;
 - korporativ obligatsiyalar shu jumladan, aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek, jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;
 - aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
 - qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organlari a'zolari, jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliv talim muassasalari o'qituvchilari va boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruxlari) tashkil etish;
 - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

12.4. Kuzatuv kengashi a'zolari kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bulgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

12.5. Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlarini orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

12.6. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnomma yuritilishini tashkil etadi, boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini imzolaydi.

12.7. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

12.8. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi.

Jamiyatning bir foizdan kam bo'Imagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

12.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

12.10. Majlisda kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalarini orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirtdan berilgan deb hisoblanmaydi.

12.11. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

12.12. Jamiyatning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan davrda, Jamiyat faqat mazkur jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart. Jamiyatning ichki audit xizmati, o'z faoliyatida audit qo'mitasiga hisobdordir.

12.13. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.

13. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

13.1. Jamiyat Boshqaruvi 4 (to'rt) kishidan iborat bo'lib, uning tarkibiga Boshqaruv raisi, Ishlab chiqarish, mahalliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarni kengaytirish hamda axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha boshqaruv raisining birinchi o'rinosari, Investitsiyalar va innovatsiyalar bo'yicha boshqaruv raisining o'rinosari, Moliya va iqtisod bo'yicha boshqaruv raisining o'rinosari.

Ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga shartnoma tuzadi va shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo'lishi mumkin emas.

13.2. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv va uning raisi (Bosh direktor) tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining vakolatlari kiritilgan masalalar bundan mustasno.

13.3. Jamiyat Boshqaruvi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 50 (ellik) foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

13.4. Jamiyat Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiyat Boshqaruvi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

13.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

13.6. Boshqaruv raisi Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

13.7. Boshqaruv raisi Qonun va muzkur Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi va ularga hisobot beradi.

13.8. Boshqaruv raisi va a'zolari kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). U bilan mehnat shartnoma Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

13.9. Boshqaruv raisi va a'zolari lavozimiga chet ellik menejerlar ham tayinlanishi mumkin.

13.10. Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etayotgan ijroiya organi a'zolari ijroiya organiga a'zolar saylash masalasida ovoz berishda ishtirok etmaydi.

13.11. Boshqaruv vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat tuzilmalari rahbarlarini tayinlash;
- ishchi va xodimlariga ish xaqi va mukofotlar miqdorini belgilash;
- Jamiyat tuzilmalari rahbarlari hisobotlarini har chorak yakuni bo'yicha eshitish;
- Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning baholangan qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha jamiyat so'aktivlari miqdorining 5 foizidan 15 foizigacha tashkil etsa, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;
- Jamiyatning asosiy vositalarini hisobdan chiqarish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tasarruf etish;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'rqnomalarni hamda Ishchi xodimlarni bo'sh ish o'rinaliga o'tkazish bo'yicha Nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- Jamiyat sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;
- Jamiyat filiallari va vakolatxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;
- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;
- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash, Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;
- Jamiyatning Boshqaruvi, qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Boshqaruv raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- mazkur Ustav va kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;
- Jamiyat nomidan bitimlar tuzish, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;
- kuzatuv kengashining roziligidagi ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;
- xodimlar shtatlarini tasdiqlash, xodimlarni (ishchilarni) ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiylarini jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;
- aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish;
- yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;
- amaldagi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish.

13.12. Boshqaruv va uning raisi o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjaligiga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

13.13. Boshqaruv va uning raisi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan «Ijroiya organi to‘g‘risida»gi nizom asosida ish olib boradi.

14. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

Ichki audit xizmati

14.1. Aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

14.2. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini tomonidan qonun hujjaligiga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjalarga rioxal etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarida ma‘lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta‘minlanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioxal etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek, jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjalarda belgilangan talablarga rioxal etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

14.3. Ichki audit xizmati jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar bilan o‘tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

14.4. Jamiyatning ichki audit xizmati o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

15. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

15.1. Jamiatni qayta tashkil etish (jumladan: qo‘sib yuborish, qo‘sib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish) va tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori asosida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

15.2. Jamiatni qayta tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49–52 moddalari, «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunning 92–97 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

15.3. Jamiatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o‘tkazmagan holda jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo‘ladi.

15.4. Jamiat quyidagi hollarda tugatiladi:

- aksiyadorlar Umumiyligi yig‘ilishining qaroriga muvofiq;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjaligiga muvofiq sud qaroriga asosan;
- amaldagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa sabablarga asosan.

15.5. Jamiatni tugatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53–56 moddalari, shuningdek, «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» qonunning 98–101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

16. USTAVGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH

16.1. Jamiat aksiyadorlarining Umumiyligi yig‘ilishi va o‘z vakolatlari doirasida Jamiat Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiat Ustaviga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasining tegishli Davlat organida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi.

16.2. Jamiat Ustaviga kiritilgan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar yoki Jamiatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e’tiboran kuchga kiradi.

16.3. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to‘xtatish uchun sabab bo‘lmaydi.

16.4. Agar O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo‘llaniladi.

16.5. Jamiyatning ushbu Ustavi Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi munosabati bilan Farg‘ona shahar Davlat xizmatlarini markazi tomonidan 2023-yil 3-maydagi 125-raqami bilan qayta ro‘yxatga olingan Jamiyat ustavi va unga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘srimchalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

17. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Ustav bo‘yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o‘zaro kelishuvi yo‘li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

17.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilish imkoniyati bo‘lмаган taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

17.3. Mazkur Ustav va uning kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

“Farg‘onaazot” aksiyadorlik
jamiyati boshqaruvi raisi



D.E. Mannonov